

Sünnet edilen gyzlar

Category: Geň-taňsy wakalar, Kitapcy

написано kitapcy | 23 январа, 2025

Sünnet edilen gyzlar SUNNAT QILINGAN QIZLAR: «SHUNCHAKI DAHSHAT»

Bugunga qadar yig'ilgan ma'lumotlarga qaraganda, qizlar ko'pincha 4 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan oraliqda sunnat qilinadi. Butunjahon Sog'liqni saqlash tashkilotining statistikasiga ko'ra, bugungacha 100-140 mln qiz sunnat qilingan. Afrika va Yaqin Sharqda yiliga 3 mln qiz sunnat qilinyapti.

Asli rossiyalik bo'lgan jurnalist Nadya Pyankova hamda fotograf Asha Maylz tomonidan tayyorlanagan "Qusur" loyihasi bu gal maxsus "Qizlar sunnati"ga asoslandi va undan Afrikaning g'arbida joylashgan Gambiyada istiqomat qiluvchi 12 ayolning hikoyasi o'rin oldi.

Gambiyada yashaydigan 76 foiz ayolning boshiga bu savdo tushgan. Sunnat qilingan qizlar proseduradan so'ngra jiddiy psixologik muammolarga oshno bo'lishadi. Kuchli og'riq va ko'p qon ketishi natijasida vafot etganlar ham oz emas. Bu qonun 2015 yilda taqiqlangan bo'lsa-da, illegal yo'llar orqali mudom davom etyapti.

■ Aida Mbenga, 22 yosh:

"Hodisani to'liq xotirlay olmayman. Chunki hushim o'zimda emasdi. Onam menga tug'ilgan kunimda Bakjulga ketishimizni aytdi. Aynan kimnikiga borganimizni eslolmayman. Uyda bitta ayol bor edi. Uyog'i esimda yo'q. Ko'zimni ochganimda shifoxonada edim. Endi kech bo'lgan, men sunnat qilingandim. Ko'p qon yo'qotganim uchun hushimdan ketgan ekanman.

Otam boshqa xalqqa mansub. Ularning xalqida bu narsagan salbiy qarashadi. Onam esa aksincha. Onam otam qarshi chiqishini bilgani uchun ham bu ishni yashirin tarzda amalga oshirgan ekan. Bilasizmi, otam haligacha bexabar. Bu haqida men

aytolmayman. Onamga achinaman. Ammo singlim buni ko'tarolmadi. U o'lib qoldi.

■ **Saro Vax, 37 yosh:**

"Yur, o'tin terib kelamiz". Onamning bu so'zlarini hech qachon esimdan chiqarolmayman. O'shanda besh yoshda edim. Biz to'qayzorga borganimizda bizni bitta ayol kutib turgan ekan. "Operasiya" uchun hamma narsa tayyor edi. Hammasi bir zumda sodir bo'ldi. Mendan tashqari yana ikkita qizni olib kelib, sunnat qilishdi. Bizni sunnat qilayotganlarida hech bir og'riq qoldiruvchi darmon berishmadi. Siz buni tushunyapsizmi? Yo'q, tushunmaysiz.

Meni erta erga berishdi. Turmush o'rtog'im 25, men esa 14 yoshda edim. Shu narsaga amin bo'lib aytamanki, sunnat qizlarga og'riq, azob, o'zligini yo'qotib qo'yish va hatto o'lim ham berishi mumkin, ammo ijobiy hech narsa bermaydi...

Tez-tez eshitib qolaman qizlar sunnati bekor qilingani haqida. Ammo qonun qog'ozlarda. BMTning bayonotlarida. Butunjahon inson manfaatlariga mutasaddi tashkilotlarning hisobotlarida, xolos. Aslida esa qiz kerak bo'lsa uyining hammomida ham sunnat qilinib yotibdi. Hatto go'dakligidayoq".

■ **Saynabu Vax, 19 yosh:**

"Men sunnat qilinganimda 9 yoshda edim. Opalarim sunnat qilingani uchun men ham qachondir bu musibat bilan yuzlashishimni bilardim. Ammo qachon, qayerda va qanday ekani haqida tasavvurim yo'q edi. Bir kuni uyimizda mehmondorchilik bo'ldi. To'kin dastrxon, kuy-qo'shiqlar.

Mendan tashqari bir necha tenqur qizlar bor edi. Keyin bizni sunnat qilishdi. O'sha paytdagi holatimizni aytmayman, baribir, tasvirlay olmayman".

■ **Fatu Badjang, 52 yosh:**

"Bu hodisa haqida hech narsa bilmayman. Meni beshikdalik paytimdayoq sunnat qilishgan ekan. Shukur qilaman. Nega? Bu bizning odatimiz.

17 yoshimdan so'ng o'zim bu amaliyot bilan shug'ullana boshladim. Keyinchalik "mutaxasis"ga aylandim. Men sunnat qilgan qizlarning ichida kasal bo'lib yoki o'lib qolganlari yo'q. Ammo, afsuski, qonun buni taqiqlab qo'ydi. Aslida, bu yerda hech qanday yomon narsa yo'q. Qizlarga nima muhim? Menimcha, qiz bola uchun eng ustun narsa – uning oilasi. Jinsiy istaklari emas".

■ **Mariama Juf, 24 yosh:**

"Onam men va singillarimni sunnat qilishni istardi. Bir kuni bizni mehmondorchilikka olib borishdi. Dasturxon shohona edi. Bizgahammasi sizlar uchun, xohlagancha yenglar, deyishdi. Men va singillarimdan tashqari yana uchta qiz ham bor edi. Keyin bizni sunnat qilishdi. Og'riq qoldiruvchi dorilar ham yo'q edi. Eng yomon, menga amaliyot chog'ida infeksiya tushgan ekan. Badanimda muntazam og'riqlar bo'lar, kunora og'riqlar tutib qolardi. Erim ham tashlab ketdi kasalmand xotin kerakmas, deb. Ayni damda Senegalda yashayotgan singlim... Mayli, bu haqida gapirmayman...

Mening hozir 4 yashar qizim bor. Bir kuni onam menga "Urf-odatlarimizga qarshi chiqma, qizingni ham sunnat qilamiz", deganida, onamga birgina javob berganman: "Sizni o'ldiraman". Shundan beri bu haqda og'iz ham ochilmadi.

■ **Salli Manex, 48 yosh:**

"3 yoshimda sunnat qilishdi meni. Menga uqtirishardiki: "Mening onam ham sunnat qilingan, men ham. Endi sen ham sunnat qilinasan". Bizda bolalarga izoh berilmaydi. Oila haq deb bilinadi.

Ikki narsaga xursand bo'laman. Birinchisi, oilamizda sunnat qilinganlarning birortasi ham o'lib qolmadi. Ikkinchisini esa televizorda ko'rdim. Qizlarni sunnat qilishni man etishibdi".

■ **Emi Sove, 19 yosh:**

"Meni hali bir yoshga to'lmasimdan sunnat qilishgan. Shuning uchun xotirlay olmayman. Bizga bu haqida keyinchalik maktabda

izoh berildi. Ko'p yillar onam bilan gaplashmay yurganman. Sog'lig'imga kelsak, og'riqlar meni bir kun bo'lsin tark etmagan. Eng yomoni opam bilan sodir bo'lgan. U juda og'ir vaziyatda edi. Qon tez-tez ketardi. Maktabga borolmasdi. Opam ikkalamizdan xulosa chiqarib, onam singillarimni sunnat qildirmadi".

■ **Xalimatu Sizay, 26 yosh:**

"Albatta, eslayman. U kunni unutib bo'lar ekanmi?! Bola edim, 6 yoshda edim. Katta ziyofatda edik. Qo'shnilar, qarindoshlar ham bor edi. Bunday ziyofatni bolalik ongim bilan farqlay olmasdim. Onam bezovta edi. Bitta qizni ichkariga ko'pchilik olib kirib ketdi. Ichkaridan u qizning chinqirab yig'laganlarini eshitib o'tirardim. Marosim boshlangandi. Bizni sunnat qilishdi. Bu hodisa hayotimda burilish yasagan. Maktabda o'qib yurgan kezlaringda Gambiyada qizlarni sunnat qilishga qarshi kurash boshlagan yoshlar tashkilot tuzib olishdi. Ular bunday hodisalarning oldini olish uchun qo'llaridan kelgan barcha ishni qilishga tayyor edilar. Men anglab yetdimki, mening o'rnim ularning safida. Shu tariqa, mana, jurnalistman. Bir necha yil oldin qizlar sunnatiga qarshi qaratilgan hujjatli film ham suratga olganman".

■ **Emi Kelloy, 38 yosh:**

"Men sunnat qilinganimda 12 yoshda edim. 12 yoshda sunat, buni tasavvur etyapsizmi? Ortiq izoh kerak emas. Sal o'tmay meni erga berib yuborishdi. Men uzzukun og'riqlardan qutulolmas, kasalmand edim. Erim ham nogiron edi. Nogironlar aravasida yuradi. Bizni taqdir majbur qildi ajralib ketishimizga. Oltita qizim bilan yashayman. Ularning birortasini ham sunnat qildirmaganman. U paytlari hali qonun chiqmagandi ayollar sunnatiga qarshi. Men o'zim urf-odatlarimizga qarshi chiqqanman. Men sunnat qilingan paytdagi kiyimlarimni haligacha asrayman.

■ **Iggeh Sove, 18 yosh:**

“Onamdan nafratlanaman...”

■ **Binta Bax, 39 yosh:**

“Men eslolmayman qanday sunnat qilinganimni. Juda kichkina boʻlganman. Toki katta boʻlguncha, oʻzim ona boʻlguncha bu haqda tushunmasdim. Jiddiyroq oʻylab ham koʻrmasdim. Ammo 10 yil avval buvim qizimni sunnat qilganidan soʻng koʻzim ochilgan. Agar oʻshanda buvim shunday qilmaganida, hozir qizim 17 yoshga toʻlgan boʻlardi”.

■ **Fatu Bax, 31 yosh:**

“Meni uzoq bir qishloqqa olib borishdi. Elas-elas eslayman. Yonimda onam bor edi. Biz kechikib borgan ekanmiz. Meni ikki kundan soʻng sunnat qilishdi.

Azobli kunlarim, iztirobli hayotim erga tekkanimdan soʻng boshlandi. Erim bilan toʻshakda birga boʻlish uchun, bolalarimni dunyoga keltirish uchun jahannam azoblariga dosh berib yashadim. Hozir radioda ishlayman. Qayta va qayta shu mavzuga toʻxtalaveramiz, toʻxtalaveramiz”.

Kiritildi: 16:21 23.07.2018.

<https://m.aniq.uz/uz/yangiliklar/sunnat-qilingan-qizlar-bu-shu-nchaki-dahshat-foto> Geñ-taňsy wakalar